


O'zbekiston Respublikasi
yalpi ichki mahsuloti¹
2026- yil yanvar-iyun oylari uchun²

- I. Yalpi ichki mahsulot dinamikasi
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot
- III. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dinamikasi
- IV. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi
- V. Kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat
- VI. O'zbekiston bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot
- VII. Izohlar
- VIII. Havolalar

I. Yalpi ichki mahsulot dinamikasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda **1 072,7** trln so'mni hamda 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati **8,5 %** ni tashkil etdi.

YAIM hajmi va o'sish sur'atlari³, yanvar-iyun



Mavzuga doir havola:

[YAIM \(YAHM\) hajmi \(choraklik\)](#)

[YAIM \(YAHM\) o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

¹ Ma'lumotlar kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.


² Dastlabki ma'lumotlar

³ 2025- yilning yanvar-iyun oylari ma'lumotlari qayta baholangan.

YAIM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan **109,8 %** ni tashkil etdi. YAIM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – **113,1 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **111,6 %** va boshqa xizmat tarmoqlarida – **111,5 %** ni tashkil etdi.

Respublikaning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksleri tashish va saqlash, axborot va aloqada – **103,2 %**, qurilishda – **105,6 %** hamda savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – **106,2 %** ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAIMning iqtisodiy faoliyat bo'yicha deflyator indeksleri



Mavzuga doir havola:

[YAIM deflyator indeksi \(choraklik\)](#)


II. Iqtisodiy faoliyat bo'yicha yalpi ichki mahsulot

Iqtisodiy faoliyat bo'yicha YAIMni ishlab chiqarish quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da	YAIM o'sishidagi hisssasi, f.p. da
	2025- yil yanvar-iyun	2026- yil yanvar-iyun		
YAIM – jami	900 694,2	1 072 670,1	108,5	x
<i>shu jumladan:</i>				
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	861 787,8	1 027 621,9	108,5	8,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	132 020,3	154 256,4	104,7	0,7
sanoat	223 246,0	272 600,0	108,0	2,0
qurilish	65 910,6	79 171,5	113,7	1,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	125 403,8	151 197,9	113,5	1,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	71 965,3	88 039,2	118,6	1,5
boshqa xizmat tarmoqlari	243 241,8	282 356,9	104,1	1,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	38 906,4	45 048,2	108,3	0,4

Iqtisodiy o'sish sur'ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining **95,8 %** ini tashkil etdi va **8,5 %** ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishidagi hissassi **8,1** foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi **4,2 %** ni tashkil etdi va **8,3 %** darajasida o'sish qayd etildi (YAIM mutlaq o'sishidagi hissassi **0,4** f.p.).

YAIMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, yanvar-iyun



2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan YAIM (YAQQ) tarkibida sanoatning ulushi **25,9 %** dan **26,5 %** ga oshdi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining ulushi **51,1 %** dan **50,8 %** ga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **15,3 %** dan **15,0 %** ga kamaydi. Qurilishning ulushi (**7,7 %**) esa o'tgan yilning mos davri darajasida saqlandi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **4,7 %** darajasida o'sish qayd etildi.

Ushbu tarmoqdagi o'sish sur'atlari o'rmon xo'jaligi – **6,3 %** ga va baliqchilik xo'jaligi – **35,8 %** ga o'sishi bilan bog'liq.

2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, sanoat tarmog'ida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi **272 600,0** mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda **8,0** % ga o'sish kuzatildi.


Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning **8,8** % ga o'sishi hisobiga ta'minlandi.

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2025- yil yanvar-iyun	2026- yil yanvar-iyun	
Sanoat – jami	223 246,0	272 600,0	108,0
<i>shu jumladan:</i>			
tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i	24 973,8	27 161,5	102,1
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	183 246,8	227 609,1	108,8
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'i	13 675,1	16 122,0	107,9
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish tarmog'i	1 350,3	1 707,4	115,9

2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qurilish tarmog'ida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi **79 171,5** mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda qurilish ishlari hajmi **13,7** % ga o'sdi.

Jumladan, bino va inshootlar qurilishi **8,5** % ga, fuqarolik obyektlari qurilishi **21,5** % ga va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **39,8** % ga o'sgan.

Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, yanvar-iyun




2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **521 594,0** mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davriga nisbatan **9,2 %** ga o'sdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari **15,0 %** ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **10,8 %** ga, tashish va saqlash xizmatlari **15,8 %** ga, axborot va aloqa xizmatlari **23,2 %** ga, boshqa xizmatlar **4,1 %** ga o'sdi.

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2025- yil yanvar-iyun	2026- yil yanvar-iyun	
Xizmatlar sohasi – jami	440 610,9	521 594,0	109,2
<i>shu jumladan:</i>			
savdo xizmatlari	80 259,6	97 022,9	115,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	45 144,2	54 175,0	110,8
tashish va saqlash	45 372,6	53 883,7	115,8
axborot va aloqa	26 592,7	34 155,5	123,2
boshqa xizmatlar	243 241,8	282 356,9	104,1

2026- yilning yanvar-iyun oylarida savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulushi chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va **42,7 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi **39,3 %** ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi **18,0 %** ni tashkil qildi.


Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, yanvar-iyun



2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, tashish va saqlash tarmog'ining Respublika YAIMidagi ulushi **5,3 %** ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulushi avtomobil transportiga to'g'ri keldi va **57,9 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi **8,1 %**, temir yo'l transportining ulushi **8,4 %**, yordamchi transport faoliyatining ulushi **17,7 %**, havo transportining ulushi **7,9 %** ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, yanvar-iyun



III. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dinamikasi

2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, aholi jon boshiga YAIM hajmi **27 950,1** ming so'mni hamda 2025- yilning mos davriga nisbatan real o'sish sur'ati **6,6 %** ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga YAIM hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-iyun




IV. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

2026- yilning yanvar-iyun oylarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,9 %** ni tashkil etdi.

AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining **28,9** foizi aloqa xizmatlari, **53,6** foizi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, **10,5** foizi ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, veb-portallar, **4,4** foizi dasturiy ta'minotni chiqarish, qolgan **2,6** foizi kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



V. Kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat




2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan **518 667,5** mlrd so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning **50,5 %** i yaratilgan. Shundan **28,4 %** i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, **11,9 %** i sanoat, **11,7 %** i qurilish tarmoqlari va **48,0 %** i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **95,4 %**, qurilishda **76,9 %**, xizmatlar sohasida **47,7 %** va sanoatda **22,7 %** ni tashkil etdi.

VI. O'zbekiston bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot

2026- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda kuzatilmaydigan (uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati hamda yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **245 489,9** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **22,9 %** ni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyunida – **26,1 %**).

Shundan uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyatining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **165 465,9** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **15,4 %** ni tashkil etdi. Yashirin iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi esa **80 024,0** mlrd so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **7,5 %** ni tashkil etdi.



Mavzuga doir havola:
[Kuzatilmaydigan iqtisodiyot](#)

2026- yilning yanvar-iyun oylarida uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati hamda yashirin iqtisodiyot hajmining tarmoqlar bo'yicha tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **60,5 %** ni, xizmatlar sohasi **23,0 %** ni, qurilish **17,8 %** ni va sanoat **6,7 %** ni tashkil etgan.

VII. Izohlar

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) Milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, rezident iqtisodiy birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi.

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YAIM O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy hududidagi barcha rezident birliklarni ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qamrab oladi.

YAIMni ishlab chiqarish usulida tarmoqlar kesimida baholash uchun Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT 2-tahriri)dan foydalaniladi.

Aholi jon boshiga YAIM muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM hajmini mamlakatning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

YAIM fizik hajm indeksi (real o'sish sur'ati) hisobot davridagi real YAIMning, ya'ni doimiy narxlarda (o'tgan yilning tegishli davri narxlarida) hisoblangan YAIMning o'tgan yilning tegishli davridagi joriy narxlardagi YAIMga nisbati sifatida belgilanadi.

YAIM deflyator indeksi iqtisodiyotdagi narxlarning o'rtacha o'zgarishini tavsiflaydi va nominal YAIM (hisobot davridagi joriy narxlardagi YAIM)ning real YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot – muntazam statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman qamrab olinmaydigan, shuningdek, statistika ko'rsatkichlarida aks ettirilishida bilvosita usullar bilan baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari.

Uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmasdan amalga oshiriladigan, mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Yashirin iqtisodiyot – qonun bilan taqiqlanmagan, biroq soliq to'lashdan bo'yin tovlash va qonunchilik me'yorlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat hokimiyati organlaridan qasddan yashiriladigan iqtisodiy faoliyat.

VIII. Havolalar

[Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Ishlab chiqarish usuli bo'yicha yalpi ichki mahsulot](#)

